

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

2-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 2 (6) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Kurbanov Eldar Ermamatovich, Qormishov Mirjalol Jumamurod o'g'li</i> O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOTUVLIKNI TA'MINLASHDA MILLIY MADANIY MARKAZLARINING INSTITUTSIONAL ROLI VA VAZIFASI (Sirdaryo viloyati markazlari misolida)	11-15
<i>Djurayev Ikrom Nematovich</i> SOPOLLI-KO'ZALI ARXEOLGIK QATLAMLARIDA SHIMOLIY DASHT QABILALARINING IZLARI	16-19
<i>Акбарова Камила Шухрат кизи</i> МЕЖДУ СЕКУЛЯРИЗАЦИЙ И МОДЕРНИЗАЦИЕЙ: СОВЕТСКАЯ ПОЛИТИКА В СФЕРЕ РЕЛИГИИ В УЗБЕКИСТАНЕ	20-26
<i>Olimov Islombek Ulug'bek o'g'li</i> SUV TA'MINOTI TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.....	27-31
<i>Sitorabonu Bobojonova</i> BUXORODA DASTLABKI MUZEYNING TASHKIL TOPISHI.....	32-36
<i>O'ralov Orzubek</i> GEOGRAFIK KASHFIYOTLARGA QADAR POLINEZIYA XALQLARINING RIVOJLANISHI VA DAVLATCHILIK INSTITUTLARINING SHAKLLANISHI TARIXI.....	37-45
<i>Qahhorov Shohjaxon Shodiyor o'g'li</i> ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING TARIXIY VA MA'NAVIY TAHLILI.....	46-50

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Madartov Bahrom</i> TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA O'ZARO MUNOSABATLARNI HISOBGA OLISH ASOSIDA STRATEGIK REJALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH	51-55
<i>Xudayberdiyev Otabek Absalomovich</i> XALQARO SAVDO MUNOSABATLARIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TA'MINOT ZANJIRI VA LOGISTIKA KONTROLLINGINING ROLI	56-64
<i>Ismailova Shaxnoza Uktamovna</i> O'ZBEKISTONDA INFLYATSION BOSIM OMILLARI VA ULARNING ISTE'MOL NARXLARI INDEKSIDA NAMOYON BO'LISHI.....	65-75
<i>Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li</i> XIZMAT KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI BELGILOVCHI OMILLAR TIZIMINI ANIQLASH VA XIZMAT SIFATI QIYMAT TAKLIFI MIJOZ TAJRIBASI BREND KAPITALI HAMDA TEZKORLIK INDIKATORLARI ASOSIDA BAHOLASH	76-87

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Alimatova Nargis Abduxalilovna</i> INSON ONGINING TABIATINI O'RGANISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	88-93
--	-------

<i>Utegenova Jamila Djolmurzayevna</i> O'ZBEKISTONDA BIOETIKANING SHAKLLANISHI VA FALSAFIY ASOSLARI	94-97
<i>Mamatqulov Rashid Pazilbekovich</i> JAMIYAT YUKSALISHIDA IJTIMOY NAZORATNING ROLI.....	98-102
<i>Shadimetov Mahmudjon Negmatjanovich</i> RUHIY KAMOLOT TUSHUNCHASINING FALSAFIY MAZMUNI VA TARIXIY ILDIZLARI .	103-108
<i>Ochilov Jamshid Abdurashidovich</i> KOSMOGEN, TEXNOGEN, ANTROPOGEN SIVILIZATSIYALAR MOHIYATINING ONTOLOGIK TALQINI.....	109-117
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> KASABA UYUSHMALARI TIZIMIDA INSON QADRINI YUKSALTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	118-126
<i>Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna</i> ABU RAYHON BERUNIY ASARLARIDA FANLARNING INSON HAYOTIDAGI O'RNI MASALALARI	127-130
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Axmedov Oybek Saporbayevich</i> INGLIZ TILIDAGI SOLIQ-BOJXONA TERMINOLOGIK BIRLIKLARINI O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHNING STILISTIK MUAMMOLARI.....	131-139
<i>Babadjanova Nazokat</i> OGAHIYNING SO'Z VA NUTQ MASALALARIGA OID QARASHLARINING MA'RIFIY MANBALARI	140-148
<i>Xo'jamqulov Anvar Jozilovich, Tog'ayeva Shoxnoza Elmurod qizi</i> ADABIYOTIDA "ABSURD" TUSHUNCHASI	149-153
<i>Abdullayeva Rahima Raimqul qizi</i> MEDIA YORDAMIDA IMIDJNING SHAKLLANISHI VA IJTIMOY FIKR	154-161
<i>Fozilov Arabjon Nozimjon o'g'li</i> CHET TILLARINI O'RGANISHDA SO'Z YODLASHNING AHAMIYATI	162-165
<i>Sarvinov Abdiraxmonova Davron qizi, Eshtuhtarova Bibigul Bektoshevna</i> THE SIGNIFICANCE OF STUDYING GENDER REPRESENTATION IN IDIOMS AND PHRASEOLOGICAL UNITS.....	166-171
<i>Raxmonova Dildora Mirzakarimovna</i> TAVALLO IJODIDA POETIK OBRAZ YANGILANISHINING IJTIMOY-TARIXIY VA ADABIY- ESTETIK OMILLARI.....	172-185
<i>Кодирова Зарина Баходировна</i> ХУДОЖЕСТВЕННОЕ СВОЕОБРАЗИЕ ДЕТСКОЙ ПРОЗЫ ДЭВИДА УОЛЛЬЯМСА: «DEMON DENTIST», «THE FING», «GANGSTA GRANNY».....	186-191
<i>Ismatilloev Jobir</i> "FIRDAVS UL-IQBOL"DAGI QASIDALARDA HUKMDORLAR MADHI	192-197
<i>Bozorova Nasiba</i> O'LMAS UMARBEOVNING "YOZ YOMG'IRI" QISSASIDA JINOYATNI O'RGANISHDA RETROSPEKSIYA USULI	198-203

<i>Ганиева Зухра Муратбаевна</i> ВЕРБАЛИЗАЦИЯ КОНЦЕПТА «СМЕРТЬ» В РУССКОМ ЯЗЫКЕ: КОГНИТИВНО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ	204-212
--	---------

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich, Ro'ziboyev Asilbek</i> SUN'IY INTELLEKT QARORLARIDA ADOLATSIZLIK MUAMMOSI VA UNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	213-218
<i>Bazarova Dildora Baxodirovna</i> ODIL SUDLOVNI TA'MINLASHDA "RAQAMLI SUD"	219-226
<i>Бабаев Джасхонгир Исмаилбекович</i> КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ДОГОВОРА ПИТЬЕВОГО ВОДОСНАБЖЕНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН: ПУТИ МОДЕРНИЗАЦИИ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА	227-229
<i>Азходжаева Роза Алтыновна</i> РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ СИСТЕМЫ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ.....	230-235
<i>Абдужампоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> ЭЛЕКТРОННЫЕ ДОКАЗАТЕЛЬСТВА В ДЕЛАХ О КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЯХ: ПРОБЛЕМЫ СБОРА, ФИКСАЦИИ И ПРАВОВОЙ ОЦЕНКИ	236-246
<i>Alijanov Ilhomjon Erkinjon o'g'li</i> PROKURATURA ORGANLARIGA QABUL QILISHDA NOMZODLARGA QO'YILGAN TALABLAR, XIZMATGA QABUL QILISH VA YOSH MUTAXASSISLAR BILAN ISHLASHGA DOIR FAOLIYATNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	247-253
<i>Sarsenbaeva Aynura Tenelbay qizi, Tanirbergenov Sultanbek Bazarbaevich</i> FUQAROLARNING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ VA ERKINLIKLARIGA QARSHI JINOYATLAR HUQUQIY MOHIYATI.....	254-258
<i>Qudratillayev Jaxongir Zokirjon o'g'li</i> INTERNETDAN FOYDALANISH HUQUQINING TARKIBIY QISMI	259-265
<i>Usmonaliyev Muslimbek Qurvonaliyevich</i> SPORTCHILARNI VAQTINCHALIK IJARAGA Olish SHARTNOMASINING SPORT HUQUQIDAGI O'RNI	266-272
<i>Mamadaliyev Boburjon Bahodirjon o'g'li</i> MAHALLIY BUDJETNI TARTIBGA SOLISHDA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI IJRO ORGANLARINING VAZIFALARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	273-278
<i>Umarova Xolisxon Nomoz qizi</i> KORPORATSIYA DIREKTORLARINING FUNKSIONAL VAZIFALARINI AMALGA OSHIRISH BILAN BOG'LIQ JAVOBGARLIGI CHEGARASI	279-286
<i>Yaqubova Guli Qosimboy qizi</i> VOYAGA YETMAGANLAR BILAN BOG'LIQ ISHLARNI FUQAROLIK SUDLARIDA KO'RISHDA PROKURORNING ISHTIROKI TUSHUNCHASI VA UNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI	287-294
<i>Ibrohimov Azimjon</i> XO'JALIK JAMIYATLARI BOSHQARUV ORGANLARI TIZIMIDA IJRO ORGANI: ROSSIYA FEDERATSIYASI MISOLIDA	295-301

<i>Choriyeva Xupshidabonu Xuppam qizi</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING "VASIYLIK VA HOMIYLIK TO'G'RISIDA"GI QONUNINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI.....	302-310
<i>Saidazimov Yusuf Sodiq o'g'li</i> MA'MURIY AKT. MA'MURIY AKTNING MAZMUN-MOHİYATI. GERMANIYA TAJRIBASI.....	311-316
<i>Tursunov Ilxomjon Salimovich</i> MUQADDAM SUDLANGAN SHAXSLAR TOMONIDAN SODIR ETILISHI MUMKIN BULGAN JINOIY HARAKATLARNI OLDINI OLIŞ VA MAXSUS PROFILAKTIKANI TAKOMILLASHTIRISH	317-321
<i>Xojanazarov Otabek Saydazimovich</i> OZODLIK DAN MAHRUM QILISH BILAN BOG'LIQ BO'LMAGAN JAZOLAR IJROSI USTIDAN PROKUROR NAZORATI: MILLIY VA XALQARO TAJRIBA.....	322-329
<i>Raxmedov Xurshid Ashrapxodjayevich</i> JINOYAT ISHINI QO'ZG'ATISH INSTITUTINING HUQUQIY TABIATI VA PROTSESSUAL AHAMIYATI	330-339
<i>Mansurova Xulkar Nabiyevna</i> FUQAROLIK PROTSESSINING TEZKORLIGINI TA'MINLASHDA SIRTDAN HAL QILUV QARORI CHIQRISHNING AHAMIYATI	340-349
<i>Begimova Nasiba Xudayberdievna</i> FARZANDLIKKA OLIŞ INSTITUTINING TADRIJIIY RIVOJLANISHI	350-358
<i>Yo'ldoshbekov Anvar</i> NAQDSIZ HISOB-KITOB LAR VA RAQAMLI NAZORAT TIZIMLARINING HUQUQIY AHAMIYATI	359-367
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> EVRISTIK TA'LIM NAZARIYASIDA TA'LIM OLUVCHINING MUSTAQIL FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	368-372
<i>Shukurov Mirjalol Norpulatovich</i> YAKKAKURASHCHILARNI TEXNIK USULLARIGA O'RGATISHDA KLAS TER USLUBIDAN FOYDALAN HOLDA TAKOMILLASHTIRISH	373-377
<i>Tilyabayev Kamil Zaitjonovich</i> O'ZBEK TILINING O'RGANILISHI VA DEKOLONIZATSIYASIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR: (DE)KOLONIAL HIS-TUYG'ULAR, MILLAT VA O'Z-O'ZINI ANGLASH	378-383
<i>Xudoyberdiyev G'iyosiddin Baxtiyor o'g'li</i> SHARQ MUTAFAKKIRLARNING FALSAFIY QARASHLARI ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA VALEOLOGIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM PEDAGOGIK OMILI SIFATIDA.....	384-388
<i>Xo'jamqulov Rasulbek Qurbon o'g'li</i> KOMPYUTER GRAFIKASI TEXNOLOGIYALARINI LOYIHA ASOSIDA O'QITISHGA INTEGRATSIYALASHNING PEDAGOGIK SAMARADORLIGI	389-393
<i>Badalov Ulug'bek Xikmatovich</i> GEOGRAFIYA FANI DARSLARIDA ONLAYN GIS TIZIMLARIDAN FOYDALANISH.....	394-398

<i>Anvarjonova Nodirakhon Nasimbek qizi</i> IS EXPLICIT GRAMMAR INSTRUCTION STILL PEDAGOGICALLY JUSTIFIED? A CRITICAL RECONSIDERATION OF ITS ROLE IN CONTEMPORARY ENGLISH LANGUAGE EDUCATION.....	399-406
<i>Imomov Fozil Shakarbek o'g'li</i> TEMPERAMENT NAZARIYASI VA INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLAR ASOSIDA GRAFIK FAOLIYATNI TASHKIL ETISH: PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA SAN'AT TERAPIYASI KONTEKSTIDA.....	407-412
<i>Курбанбаев Джавод Аминбаевич</i> КОГНИТИВНЫЕ И ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ОСНОВЫ ЛЕКСИЧЕСКИХ ГЛОССАРИЕВ В ЯЗЫКОВОМ ОБРАЗОВАНИИ	413-417
<i>Eshnazarova Farida Jo'raqulovna</i> JAMOADA LIDERLIK VA UNING SIFATLARI (SPORT JAMOALARI MISOLIDA).....	418-421
<i>Yuldasheva Muhayyo Alimbaevna</i> AVTOMOBILLARDA TASHISH VA HARAKAT XAVFSIZLIGINI TASHKIL ETISH FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY TA'LIM VOSITALARINING O'RNI.....	422-429
<i>Umarov Komil, Sobirov Orif, Sultanov Rustam, Egamberdiyev Abdullo</i> YUQORI MALAKALI GANDBOLCHILAR MASHG'ULOTLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	430-435
<i>Doniyorova Gulnoza Anvar qizi, Kurbanova Gulnoz Negmatovna</i> INTERAKTIV VOSITALAR VA AXBOROT RESURSLARIDAN FOYDALANISH ORQALI KASBIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI.....	436-441
<i>Nafasov Arslon Komilovich</i> PEDAGOGIK TA'LIM KLASTERI YO'NALISHIDA TARIX O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI.....	442-447
<i>Pulatova Muxabbat Egamberdiyevna, Qalandarova Sevinch Aqiljon qizi</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV SALOHIYATINI SHAKLLANTIRISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH	448-453

Received: 15 January 2026
Accepted: 2 February 2026
Published: 14 February 2026

Article / Original Paper

ODES PRAISING RULERS IN FIRDAWS-UL-IQBAL

Ismatilloev Jobir

PhD Student, Karshi State University

Abstract. This article presents information about the odes in the work "Firdaus ul-iqbol" written by Shermuhammad Munis Khorezmi and Muhammad Riza Ogahiy. "Firdaus ul-iqbol", created on the instructions of the Khan of Khiva Eltuzarkhan, is not only a valuable source in the study of the history of Khorezm, but also important as a literary source. The article provides comments on the odes of Munis and his contemporaries, such as Maseho Bukhari, Vaisniyoz Ziyarak, Muhammadniyoz Munshiy.

Keywords: Munis Khorezmi, Ogahiy, Eltuzarkhan, "Firdaus ul-iqbol", ode, hymn.

"FIRDAVS UL-IQBOL"DAGI QASIDALARDA HUKMDORLAR MADHI

Ismatilloev Jobir,

Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada Shermuhammad Munis Xorazmiy va Muhammad Rizo Ogahiy tomonidan yozilgan "Firdavs ul-iqbol" asaridagi qasidalar xususida ma'lumotlar keltirilgan. Xiva xoni Eltuzarxon topshirig'i asosida yaratilgan "Firdavs ul-iqbol" Xorazm tarixini o'rganishda qimmatli manba bo'lish bilan bir qatorda adabiy manba sifatida ham ahamiyatlidir. Maqolada Munis va zamondoshlari Maseho Buxoriy, Vaysniyoz Ziyarak, Muhammadniyoz Munshiy kabi shoirlarning qasidaları haqidagi fikr-mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: Munis Xorazmiy, Ogahiy, Eltuzarxon, "Firdavs ul-iqbol", qasida, madh.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I2Y2026N27>

"Firdavs ul-iqbol"ning Xiva xoni Eltuzarxon topshirig'iga binoan Munis Xorazmiy boshlagani hamda vafotidan so'ng asar shogirdi va jiyani Ogahiy tomonidan nihoyasiga yetkazilgani ilm ahliga ma'lum. Asar Xiva xonligi tarixi, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni yoritish bilan birgalikda, adabiy manba sifatida ham ahamiyatlidir. Chunki asarda g'azal, qit'a, ruboiy, takribband, masnaviy, qasida, ta'rix singari turli janrdagi bir necha ming bayt she'r o'rin olgan. Bu she'rlar faqat Munis va Ogahiy qalamiga mansub bo'lib qolmay mualliflar o'zlaridan oldin o'tgan shoirlar va zamondosh ijodkorlarning she'rlaridan namunalar kiritishgan. Filologiya fanlari doktori, professor Nurboy Jabborovning ta'kidlashiga ko'ra: "Firdavs ul-iqbol"dagi – besh ming misraga yaqini asarning Munis yozgan qismidan, bir ming yigirma ikki misrasi esa Ogahiy yozgan qismidan o'rin olgan[1].

Xorazm adabiy muhitida ijodkorlar ko'p murojaat qilgan janrlardan biri qasida bo'lib, ushbu janrdagi eng yaxshi namunalarni Munis Xorazmiy[2], Muhammadrizo Ogahiy[3], Komil Xorazmiy[4], Rojiy Xorazmiy[5]. kabi shoirlar ijodida ko'rishimiz mumkin. Bu davrda yaratilgan qasidalarining asosiy qismini madh qasidalar tashkil etadi. Buni tor ma'noda faqat hukmdorni ulug'lash, maqtash deb tushunish kerak emas. Xorazmda adabiy muhit bejizga shakllanib, xonlikda o'z-o'zidan yuzlab ijodkorlar qalam tebratmadi. Bunga xonlarning olib borgan odil

siyosati, mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikning ta'minlangani, madaniyat va san'atga qaratilgan e'tibor, ijod ahlining moddiy hamda ma'naviy qo'llab-quvvatlanishi asosiy omil bo'ldi. Zero, "Firdavs ul iqbol"dek qimmatli asarni yaratishida Eltuzarxon, Mirxondning "Ravzar us-safo" asarini tarjima qilishida Muhammad Rahimxon I da'vatkor bo'lgan edi. Bunday ma'rifatparvar xonlar har qancha mahd etilishga loyiq desak xato bo'lmaydi. Munis qasidanavislikda o'ziga xos maktab yaratgan ijodkordir. Shoir devonining salmoqli qismini qasidalar tashkil etadi.

Yuqorida ta'kidlangani kabi "Firdavs ul-iqbolda" turli janrdagi she'rlar qatorida beshta qasida va bir qasida mat'la keltirigan. Ular umimiy 166 baytni tashkil etadi. Kitobning muqaddima qismi ana'naviy tarzda Ollohga hamd, Rasuli Akramga na't va to'rt xalifaga bag'ishlovlar bilan boshlangan. Shundan so'ng shoir o'z holatini bayon etib, "Agar falak turli balolarni yuzaga keltirsa mushoyira majlislarida she'rlarim bilan odamlar ko'nglidagi malollikni aritar erdim", deya nazmning insonlar qalbiga shodlik uyg'otuvchi vosita ekanini ta'kidlaydi.

Shoir zamona beqarorligini bartaraf etish, jamiyatdagi adolat mezonlarining o'nglanishi uchun bir hukmdor kelganini ta'kidlab: "...kishvaristonlig' taxti bir podshohi gardundargoh qudumi himmati bila baland bo'ldikim, saodat gavhari oning tojig'a zavar bo'lmoq bila garonmoyadur va jahonbonlig' toji bir shahanshohi anjumsipoh toraki davlati bila ziynat topdikim, iqbol atlası taxtig'a doraj bo'lmoq bila sohibi qimmatdur"[6:27].., deydi. Muallif fikrini davom ettirar ekan, xonning hokimiyati ilohiy ne'mat, Yaratgan tomonidan taqdiriga bitilganligini dalillash maqsadida Qur'oni karimdagi "Biz sizga ravshan g'alaba ato etdik" hamda "Fath Alloh dandir" oyatlarini keltiradi. Shundan so'ng dastlabki qasida kelgan. Mazkur qasida 29 bayt bo'lib, unda mamduh ism ham, shoir taxallusi ham keltirilmagan. Ammo, beshinchi bayt mazmuni va qasidadan so'ng kelgan nasriy jumlada hukmdor nomi keltirilganligidan qasidaning Eltuzarxonga bag'ishlanganini ravshanlashtiradi. Munis Xorazmiyni mazkur tarixiy asarni yozishga da'vat etgan xonni asar muqaddimasida e'tirof etishi tabiiy hol.

Qasidaning dastlabki baytlarida hukmdorning taxti osmon kabi baland, uning saroyi adolat maskani. Boshida mehribonlik quyoshi kabi zarhal toj, qadri shu qadar yuksakki, uning oldida falak ham pastda, himmati oldida butun dunyo arzimas bir manzil deya boshlaydi. Hukmiga butun olam bo'ysunadi. Chunki, xorazmshohlik unvoni ilohiy lutf ya'ni Yaratganning unga qilgan marhamati deya ta'kidlaydi.

Lek chingiziylar istiol topib qahridin,

Eylakim, Chingiz tig'i vahmidin Xorazmshoh.

Mazkur baytda Xorazm o'tmishidagi ikki tarixiy voqea qalamga olingan. Shoir ilk misrada Qo'ng'irotlar sulolasidan bo'lgan Eltuzarxonning shayboniylardan bo'lgan mug'ul xonlarni taxtdan ag'darib, o'zini rasman Xiva xon deb e'lon qilgani aks etgan. Zero, uning ajdodlari, xonlikda inoq lavozida edi. Ikkinchi misrada buyuk Xorazmshohlar davlatiga Chingizxon qo'shini 1222-yilda barham berganligi aks etgan. Bu hukmronlikka Eltuzarxon batamom chek qo'ygani e'tirof etilgan. Shoir mamduhni madh etishni davom etar ekan, sultonlar unga xizmat qilishni mayl etib, bu bilan ular afsonaviy Iskandardek rutbaga erishdi, deydi. Xon shu qadar fayzli hukmdorki, uning qadami yetgan qora tuproq oltinga aylanadi. Uning mamlakatda adolatli siyosat olib borgani sababli, zulm tamomila barham topdi. Nohaqlikdan shikoyat qiladigan biri kimsa, qolmadi. Uning tig'i qahridan jamiki dushman

yakson bo'ladi. Lekin, shoh kechirimli va muruvvatli. Agar kimki unga bo'ysunib omonlik tilasa, uning gunohidan o'tadi. Lutfidan fazilatli kishilar osmon taxtiga ko'tarildi ya'ni e'tibor topdi. Sahovatidan irod va san'at ahli quyoshdek porlaydi. U shu qadar ko'p oltin va kumushlarni ehson etadiki go'yo Jannatdagi Tubi daraxtidan mevalar tushayogandek.

Qasidaning so'nggi uch bayti duo bo'lib, shoir Yaratganga iltijo qilib, xonning iqboli baland bo'lishini, janglarda zafar qozonib, yetti iqlimning hukmdori bo'lsin. G'araz niyatlilar chumolidek tuproq ostida yo'q bo'lib, Sulaymon kabi ezgu niyatlilar iqbol topsin deya ta'kidlaydi.

Asardagi ikkinchi qasida, muqaddima qismning yakunida kelgan. O'ttiz bir baytni tashkil etadi.

***Chehib Haq azal subhi kilki qazo,
Bitib barcha ahloqi neku anga.***

***Fazoil kelib zotida jilvagar,
Sukun birla sayri sarosar hunar.***

Qasidaning dastlabki baytlaridan boshlab mamduhga xos go'zal fazilatlar taqdiriga bitilgani ifoda etilgan. Azal tongida taqdir qalamini harakatga keltirib, hukmdorga barcha yaxshi xulqlar yozildi. Fazilatlar uning zotida jilvalandi. Shoir bu holatni Yaratganning inoyati sifatida ifoda etadi. Qasidaning keyingi baytlarida ham xonning fazilatlarini bayon etar ekan, hilmda xalifa Usmonga o'rinbosar, shijoatda esa Rustam uning oldida ojizdir deydi. Xirad (donolik, aql, idrok) qalbiga shu qadar sayqal berganki, ming yil keyin ro'y beradigan voqeani ham biladi. U so'zlaganda hatto Aflotun ham gung kabi lol qoladi deya mubolag'alar asosida xonni maqtaydi. Quyidagi baytlarda Munis o'zini ulug' shoir Alisher Navoiyga, Eltuzarxonni esa Husayn Boyqaroga mengzaydi:

***Chu shoirlar ichra solib lutfi shayn,
Tahayyur qilib Shoh Sulton Husayn.***

***Netong, men bo'lub modihi shoh,
Yetushsa Navoiydin ortqisi joh.***

Temuriy hukmdor, shoir, san'at va adabiyot homiysi Husayn Boyqaro irod ahliga, jumladan Alisher Navoiyga yuksak hurmat ko'rsatgani tarixdan ma'lum. Munis misralarda shunga ishora qilib, men ham shohimni madh etdim. U menga iltifot ko'rsatsa-yu, mening shuhratim (martabam) Navoiydan-da baland bo'lsa ajab emas, degan fikrni ilgari surgan holda xondan e'tibor va e'tirof kutadi.

Agar dengizlar suvi siyoh bo'lsa, qalamlar esa yer yuzidagi jamiki o'simliklardan ziyod bo'lsa, yetti qavat osmonni va yana yetti qat yerni varoqqa aylantirsalar. Jahon ahli Xizrdek abadiy hayot topsa ham va har biri sabrli, sobit kotib bo'lsa, ular umrlarini sarflab podshohni vasfini shoshib yozsalar ham, uning vasfini oxirigacha yetkaza olmaydilar. Uning fazilatlarining mingdan biri ham yozilmay qoladi. Siyoh, varaqlar, qalamlar tugaydi. Shunday ekan, ey Munis, yozishdan chekin, shohning duosini qil, Yaratganga iltijo qilib, shohga boqiy umr, shon-shavkati baland bo'lishni tila deya shoir o'ziga nasihat qiladi. Xonga to jahon boricha hukmronlik, baxtu-iqbol tilab qasidani yakunlaydi.

Asarning 4-bobida Munis Eltuzarxoning taxtga chiqishi munosabati bilan ta'rix va qasida yozganini qayd etgan. Sakkiz misrali forcha ta'rixni va qasidaning quyidagi mat'lasini keltirish bilan kifoyalangan:

**Beza, ey shohidi davlat, menga vasling shabistonin,
Charog'i majlisafro'z et jamoling mohi tobonin.**

Mazkur qasida 44 baytdan iborat bo'lib, shoir devoniga kiritilgan ettinchi qasidadir.

“Firdavs ul-iqbol”dagi to'rtinchi va beshinchi qasida Muhammad Rahimxon I ning 1811-yilda qo'lga kiritgan g'alabasi munosabati bilan yozilgan. Xonlikning shimoliy sarhadlarida yachovchi ko'chmanchilar o'zaro ittifoq tuzib, To'ramurod sufi boshchiligida qo'zg'alon ko'tarishadi. Isyon bostirilib xonning qo'shini zafar bilan poytaxtga qaytadi. Munisning qayd etishicha bu g'alaba munosabati bilan shoirlar qasida va ta'rixlar bitgan. Muarrix asarda Masihoi Buxoriyning forsiy qasidasi va ta'rixini, Vaysniyoz Ziyrakning qasidasi va o'zining to'rt ta'rixini keltirgan. Masiho Buxoriyning qasidasi 42 baytni tashkil etadi. She'r odatdagi madhlar singari shohning sifatlarini ta'rif-u tavsif etishdan boshlanadi. Mamduhni forslarning mashhur podshosi Doroga qiyoslaydi va “zu-l-kamol” - ulug' kamolot egasi, quyoshdek nur sochuvchi. Yuksak maqomda bo'lgani uchun hilol ham dol kabi qaddini bukib shohga ta'zim qiladi, deya ta'kidlaydi. Qasidaning yettinchi baytida mamduh nomi keltirilib, xonning xalq qismatiga himoyachi, xalqparvar hukmdor sifatida yuborilganligini e'tirof etadi:

**Shohi falak janob Muhammadrahimxon,
Bar farqi xalq soyayi sultoni zu-l-jalol.**

Kimki uning marhamati soyasida panoh topsa zabunlikdan forig' bo'lib nihoyasiz davlat-u iqbol tomon parvoz etadi. Hukmdorning kuch-qudrati benihoyadirki, zulum qilguvchi qo'llarni tak-tugi bilan yulib tashlaydi. Uning mamlakatni bunyod etishida adolat bosh mezon. Orol qal'asida o'rnashib olgan fitnachilar shamolda ko'tarilgan tutun kabi mag'rurlikka berildi. Hukmdoirning oliy farmonlarini ado etishdan bosh tortdi. Xalq ichida buzg'unchilik, fasod urug'ini sochdi. Agar pashsha Anqo kabi uchishni davo qilsa qanoti sinib poymol bo'lgani singari fitnachilar ham hukmdor qarshisida ojiz qoldi. Qasidaning keynigi baytlarida modih xonni duo qilib, yo Rab, cheksiz marhamatingni darig' tutma. Xalqqa xayrixoh yordamchilarni xonga hamdam qilgin. Xasadgo'y, fitnachilar to'abad yo'q bo'lib ketsin, deydi. Shoir so'nggi baytda ta'rix san'atini qo'llagan holda qasidaning hijriy 1226-yilda (milodiy 1811-yil) yozganligini ishora etgan:

**K-in fathro natijai ta'rix bahri shoh,
“Umr muxallad omada, iqbol be zaval”**

Keyingi qasida shoir Ziyrak qalamiga mansub. Qasida 39 baytni tashkil etadi. “Hiloliya”ga tatabbu sifatida yozilgan she'r olamda yangi kunning inekosi ta'rifi bilan boshlangan. Shoir quyosh chiqib, tun zulmatini bartaraf etishini Rum Qaysari (shoh Iskandar)ning Hindiston mamlakatini ishg'ol etishiga mengzaydi. Ziyrak qasidaning madh qismida xonni ulug'lab, dinu-diyonatni mahkam tutgan, shariat nizomlarining amal qilinishiga e'tiborli deya ta'riflaydi:

**Qo'ymayin bir zarra nomar'i Xudo farmonini,
Bir sari mu bermayin qo'ldin nabining sunnatin.**

Shoir yigirma to'qqizinchi baytda mamduh ismini keltirib, uning haq bilan nohaqni ajrativchi adaolat timsol (Foruq) deya atab, har bir faoliyati chiqargan qarorlari islom diniga asoslanishi, shariatga zid xatti-harakatlarini qilmasligini va shuning barokatidani janglarda

doim qo'li baland kelishini ta'kidlaydi. Uning bayram hiloli eslatuvchi qilichi dushmanlarini o'z qoni bilan gulgun rangga bo'yaydi. Ular go'yo qizil libos kiygandek. Uning qilichi go'yo bahorda quyosh nurida chilvalangan kamalak (qavsi quzah)dek yomg'iru, chaqmoq kabi fitnalarga chek qo'ydi. Modih quyidagi baytlar bilan qasidani yakunlab, Yaratgandan mamduhga ikki dunyo saodatini tilaydi:

***Bo'lsa yuz yil mumkin ermas vasfini qilmiq ado,
So'zni xatm et Ziyrako, aylab duoi davlatin.***

***To mayi aysh ichgay el jomi hiloli iyddin,
Qo'yma, yo Rab davrdin bir lahza jomi ishratin.***

***Xoni ehsoningni shomil aylabon ro'zi jazo,
Qil anga ro'zejaybingdin shafolat ne'matin.***

“Firdavs ul-iqbol”dagi so'nggi qasida mullo Niyozmuhammad Munshiy qalamiga mansub bo'lib, mazkur qasida Muhammad Rahimxon I ga bag'ishlangan. 1812-yilda xonlik tarkibidagi Dashti Qipchoq aholisi soliq to'lashdan bosh tortib, mustaqillikni da'vo qildi. Muhammad Rahimxon I qo'shini isyonni bostirdi. Bu esa markaziy hokimiyatning yanada mustahkamlanishiga zamin yaratdi. Munshiyning maskur qasidasida Movarounnahrda shakllangan mumtoz qasidanavislik an'analari yaqqol ko'zga tashlanadi. Qasidaga “keldi” so'zi radif bo'lib keladi. Ma'lumki, Mavlono Sakkokiyning Mirzo Ulug'bekka bag'ishlangan qasidalarining birida va Sayido Nasafiyning (madhi fors-tojik tilida yozilgan) Subhonqulixonga bag'ishlangan qasidasida “keldi” so'zi radif bo'lib kelgan. Niyozmuhammad Munshiyning qasidasi 24 baytni tashkil etadi. Shoir qasidaning dastlabki baytlarida davlatni jasatga qiyos etib, xonning kelishini, tanaga ruhning kirishiga qiyoslaydi:

***Shukrkim kishvariga xon keldi,
Olamon barchasi omon keldi.***

***Bir badan erdi mamlakat jonsiz,
Filmisl ruh ila ravon keldi.***

Munshiy modihning fathdan g'alaba bilan qaytganini ko'tarinkilik bilan qalamga olar ekan rohzan (yo'lto'sarlarni) toroj etgani, xon lashkarlari katta o'ljalar bilan qaytgani ta'kidlaydi. Shoir qasida so'ngida o'ziga murojaat qilib, ko'p so'z so'zlamaslikka, bu esa eshituvchiga malol kelishini aytadi va shohga hamisha navqironlik, durkunlik (sarsabz)ni tilab she'rga nuqta qo'ygan.

Muxtasar qilib aytganda Xorazm adabiy muhitida g'azal, muhammas, ta'rix kabi mumtoz she'riyatimiz janrlari qatorida qasida janri ham taraqqiy topdi. Uning ko'plab yaxshi namunalar yaratildi. Bu janrdagi she'rlar nafaqat hukmdorlarni madh etish bilan birgalikda, davr tarixini, ijtimoiy-siyosiy manzarlarini o'rganishda ham ahamiyatli manbadir. Biz yuqorida ko'rib o'tgan qasidalar ham xonning taxtga chiqishi yoki harbiy yurishda g'alaba qozonganligi munosabati bilan yaratilgan.

Adabiyotlar/Литературы/References:

1. Jabborov, N. A. 2021. “Firdavs ul-iqbol” – Ogahiyning badiiy-tarixiy nasrdagi ilk tajribasi”. Oltin bitiglar3: 4–24.

2. Мунис, Шермуҳаммад. Девон. – ЎзР ФА Шарқшунослик институти фонди, № 63 рақамли тошбосма.
3. Ogahiy, Ta’viz ul-oshiqin: Devon (nashrga tayyorlovchi S.Rafiddinov). –Toshkent: “Adabiyot”, 2023. –688 b
4. Nuriddinov Sh., Komil Xorazmiy devoni manblari genealogiyasi va matn tanqidi muammosi [Matn]: ilmiy-nazariy. –Toshkent: “Fan va ta’lim”, 2022. –264 b.
5. Berdimurodova M.Muhammad Yusuf Rojiiy Xorazmiy adabiy merosi. diss. f.f.n. - Ташкент, 2010. –160 b.
6. Munis va Ogohiy. Firdavs ul-iqbol. –T.: “Yangi asr avlodi”, 2010. –520 b.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 2 (6) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).